

Talabalarga bayram dasturxononi

Yangi yil yangi kuch – quvvatni talab etishini talabalarning tadbirdagi ishtirokidan ham anglab olish qiyin emas edi. Ustozlarning muruvvati talabalarning ta'lim-tarbiyaga e'tibori yuqori bo'lishiga imkon tug'dirishi tayin. Shuning uchun ham institutimiz pedagoglarining talabalarga, ularning bilim-saviyasi oshishiga va yashash sharoitlariga e'tibori katta.

2019 yil 12 yanvar kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rektori O'. Umurzakov va institut kasaba uyushmasining raisi F. Irisovlarning tashabbusi bilan institut talabalar turar joylarida yangi yil bayram dasturxononi tashkil etildi. Talabalarga bayram munosabati bilan osh tarqatildi. Ushbu bayram oshida qishki ta'tildan qaytgan "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti talabalari ham faol qatnashdi. Tadbir juda qiziqarli va maroqli bo'lib o'tdi. Bu tadbirdan fakultetimiz talabalar turar joyida istiqomat qiladigan talabalarimiz juda ham xursand bo'lishdi va institut rektori hamda kasaba uyushmasining raisiga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.



YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan movini Hurriyat Eshova axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov